



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 yil 27-fevral, № 41 (8936)

Payshanba

Saytimgizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON — POKISTON STRATEGIK SHERIKLIGIDA YANGI SAHIFA OCHILMOQDA

Toshkent shahridagi Xalqaro kongress markazida 26-fevral kuni Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifni rasmiy kutib olishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, shohsupaga taklif etdi. Harbiy orkestr ikki mamlakat davlat madhiyalarini ijro etdi.

Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini bir-biriga tanishtirdilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahbaz Sharif tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

O'zbekiston — Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning barcha yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida Pokiston Bosh vaziri Shahbaz Sharif samimiy qabul uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

Davlat rahbarlari keyingi yillarda ko'p qirrali hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Faol siyosiy muloqotlar, samarali parlamentlararo va idoralararo almashinuvlar davom etmoqda.

2024-yilda tovar ayirboshlash hajmi 400 million dollardan oshdi, qo'shma korxonalar soni 130 taga yetdi. Karachi va Toshkentda savdo uylari ochildi. Toshkent va Lahor o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar tiklandi.

Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, biznes forumlari va O'zbekiston milliy sanoat ko'rgazmasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Muzokaralarda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Qabul qilingan "Yo'l xaritasi" asosida tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo'yicha o'zaro muvofiqlashgan choralar ko'rish muhimligi ta'kidlandi.

Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim doirasida tovarlar ro'yxatini kengaytirish, fitosanitariya va karantin talablarini, bojxona tartib-taomillarini o'zaro soddalashtirish, standartlarni yaqinlashtirish, elektron savdo platformalarini integratsiya qilish, xaridlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash, banklararo hisob-kitoblar mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalar ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Yetakchi kompaniyalarning farmatsevtika, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, geologiya va mineral resurslar, to'qimachilik, charm sanoati va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish rejalari ko'rib chiqildi.

Hududlar o'rtasidagi ishbilarmonlik va madaniy aloqalarni rag'batlantirish maqsadida davlatimiz rahbari O'zbekistonda ikki mamlakat hududlari forumini o'tkazishni taklif etdi.

O'zbekiston va Pokiston yetakchilari transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish va tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalariga alohida to'xtalidilar.

Keyingi bir necha yilda "O'zbekiston

— Afg'oniston — Pokiston" multimodal yo'lagi orqali yuk tashish hajmi 5 barobar ko'paygani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yuk aylanmasi hajmini yanada oshirish maqsadida qo'shma transport-logistika kompaniyasini tashkil etishga kelishib olindi.

Transafg'on temir yo'lini qurish loyihasini amalda ilgari surish maqsadida birgalikdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhim ekani ta'kidlandi.

Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishini joriy yil iyul oyida Lahor shahrida o'tkazishga kelishib olindi.

Tomonlar madaniy-gumanitar va turizm almashinuvini yanada kengaytirish muhimligini qayd etdilar. Shu ma'noda, o'zaro Madaniyat haftaliklari va turizm dasturlari taqdimotlarini o'tkazishga kelishib olindi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Qo'shimlasik harakati, Islom hamkorlik tashkiloti, SHHT va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti va Pokiston Bosh vaziri terrorism, radikalizm, islomofobiya va xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurligini ta'kidladilar.

Keng o'lamlil hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadida

Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini ta'asis etish va uning birinchi yig'ilishini kelgusi yilda o'tkazishga kelishib olindi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha qo'shma "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahbaz Sharif ko'p qirrali O'zbekiston — Pokiston hamkorligini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan Qo'shma deklaratsiya hamda ikki tomonlama Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tuzish to'g'risidagi bayonnomani imzoladilar.

Ikki mamlakat yetakchilari huzurida tashrif davomida imzolangan quyidagi hujjatlar almashildi:

- Fan, texnika va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- Diplomatik pasport egalari vizasiz safarlari to'g'risida bitim;
- Ichki ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- Professional ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- Yoshlarga oid siyosat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- Milliy axborot agentliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- diplomatik akademiyalar, Toshkent va Lahor shaharlari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar va ahdlashuvlar hamda boshqa hujjatlar.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahbaz Sharif bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlariga izoh berdilar.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida uchrashuvlar samarali bo'lganini alohida qayd etib, ushbu tarixiy tashrif O'zbekiston — Pokiston strategik sherikligida yangi sahifa ochishini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini yuksak baholadi.

Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda, siyosiy maslahatlashuvlar, qator ishbilarmonlik tadbirlari va O'zbekiston sanoat ko'rgazmasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Oliy darajadagi muzokaralar chog'ida tomonlar ko'p qirrali hamkorlikning yangi "o'sish nuqtalari"ni belgilab olgan. Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tashkil etishga kelishib olingani ta'kidlandi.

O'zaro savdo hajmini keskin oshirish va nomenklaturasini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, transport jihatdan o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish, biznesni qo'llab-quvvatlash va unga qulay sharoitlar yaratish masalalari diqqat markazida bo'ldi.

Global va mintaqaviy tuzilmalar, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqalar doirasidagi yaqin aloqalar hamda o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga kelishib olindi.

Afg'onistonni tinch rivojlantirish, Falastin masalasini diplomatik yo'l bilan hal etish borasidagi pozitsiyalar yaqin ekani ta'kidlandi.

Shu bilan birga, xavfsizlik sohasida, terrorism, transmilliy jinoyatchilik, gijohvand moddalarning noqonuniy aylanishi va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani bildirildi.

Muzokaralarda madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi almashinuvni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Madaniyat va san'at festivallarini o'zaro o'tkazish, sayyohlar oqimini, shu jumladan, "Umra plyus" dasturi doirasida oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahbaz Sharif O'zbekiston — Pokiston biznes forumida ishtirok etdilar.

Tadbirda ikki mamlakat yetakchi kompaniyalarining 300 nafarga yaqin rahbarlari va vakillari ishtirok etdi. Pokiston tomonidan "Al-Rafiqe Enterprises", "Mehran Dates Products", "Brighto Chemicals", "Transpower Industries", "FWO", "T.M.C.", "Pakistan Mobile", "TCS" va boshqa ko'plab kompaniyalar qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida bo'lib o'tgan samarali muzokaralarda ko'p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilingani, katta reja va vazifalar belgilab olinganini ta'kidladi. Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tuzishga kelishib olindi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning lokomotivi sifatida belgilandi.

Ulkun salohiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotlarimiz bir-birini to'ldirishga qodir, — dedi Prezidentimiz. O'tgan yil yakunlariga ko'ra tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada oshdi, qator yirik qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan O'zbekiston Pokistonning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo sherigiga aylandi.

Keyingi yillarda biznes uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha choratadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Lahor bilan aviaqatnovlar tiklandi, reyslar sonini ko'paytirish va parvozlar geografiasini kengaytirish rejalashtirilgan. Biznes forumlari, sanoat ko'rgazmalari o'tkazilmoqda. Karachi va Toshkent shaharlarida savdo uylari tashkil etilgan.

O'zbekiston — Pokiston hamkorligi yangi loyihalar bilan boyimoqda. "Pak Merit", "Diamond Group", "Silk-way", "Getz Pharm", "Gerbion", "NLS" va boshqa kompaniyalar bilan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha qator takliflarni ilgari surdi.

Avvalo, yiliga kamida ikki marta — O'zbekiston va Pokistonda biznes vakillarini keng jalb qilgan holda ishbilarmonlik tadbirlarini muntazam o'tkazib borish muhimligi ta'kidlandi.

Jug'rofiy yaqinlikni hisobga olib, tovar ayirboshlash hajmini keskin oshirish, shu jumladan, amaldagi Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim doirasida tovarlar nomenklaturasini kengaytirish, fitosanitariya, karantin va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, banklararo hisob-kitoblar mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Xitoyning Markaziy Osiyo bilan bog'laydigan temir yo'l qurilishi boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Kelajakda ushbu strategik yo'l Pokiston bandargohlariga olib chiqishi mumkin, bu esa o'zaro savdo va investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Sanoat kooperatsiyasini jadal rivojlantirish mamlakatlarimizning tub manfaatlariga mosdir.

Hududlararo hamkorlik salohiyatidan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Shu ma'noda, hududlar rahbarlarining o'zaro tashriflarini faollashtirish, bunda ikki mamlakat ishbilarmon doiralari keng jalb qilish muhimligi qayd etildi.

Pokiston Bosh vaziri Shahbaz Sharif, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng o'lamlil islohotlar dasturini, shuningdek, biznes yuritish uchun yaratilgan sharoitlarni yuqori baholab, sheriklikni kengaytirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidladi.

Shu bilan Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahbaz Sharifning O'zbekistonga rasmiy tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-fevral kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anni tavallud kuni bilan samimiy tabrikledi.

Davlatimiz rahbari Turkiya yetakchisiga sihat-salomatlik, farovonlik, qardosh turk xalqining barqaror taraqqiyoti va ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Zamonaviy Turkiyaning barpo etilishida, mamlakatning global maydondagi nufuzi yuksalishida, O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari bugungi yuksak darajaga ko'tarilishida Prezident Rejep Erdog'anning o'rni va shaxsiy hissasini alohida qayd etildi.

Turi darajalarda faol, sermahsul muloqot va almashinuvlar davom etayotgan, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi amaliy hamkorlik sur'ati oshib borayotgani katta mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Investitsiyalar, innovatsiyalar, energetika, infratuzilma, sog'liqni saqlash,

ta'lim va boshqa sohalarida qo'shma kooperatsiya loyihalarini ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Davlat rahbarlari Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishi va Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi bo'lajak sammitlar kun tartibini tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratdilar.

Xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Suhbat yakunida yetakchilar butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyi kirib kelishi munosabati bilan bir-birini tabriklab, qardosh O'zbekiston va Turkiya xalqlariga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'ZA.

## JANUBIY VA MARKAZIY OSIYO MINTAQALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI MUSTAHKAMLASHDA O'ZBEKISTON PREZIDENTINING ROLI JUDA KATTA

26-fevral kuni Pokiston Bosh vaziri Shahbaz Sharifning O'zbekistonga amalga oshirgan ikki kunlik rasmiy tashrifi yakunlandi.

Toshkentda bo'lib o'tgan oliy darajadagi sammit davomida O'zbekiston — Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning barcha yo'nalishi ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va

Pokiston Bosh vaziri Shahbaz Sharif keyingi yillarda ko'p qirrali hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Toshkentda O'zbekiston — Pokiston hamkorligini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan Qo'shma deklaratsiya hamda ikki tomonlama Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tuzish to'g'risidagi bayonnomani imzolandi.

### Dunyo nigohi

Sarmad ALI,  
Pokiston Senati a'zosi:

Tashrif ikki davlat o'rtasidagi chuqur tarixiy aloqalardan darak beradi. Pokiston hukumati rahbari Shahbaz Sharifning O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvi yangi kelishuv va tashabbuslar orqali mintaqaviy aloqalar doirasida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, strategik sheriklik munosabatlarini

chuqurlashtirish va o'zaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kun tartibidagi asosiy masala o'zaro savdo va sarmoyani rag'batlantirishdan iborat. Shu bilan birga, har ikki tomon o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish bo'yicha ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga intilmoqda.

Ishonchim komilki, Toshkentda bo'lib o'tgan muzokaralarda ta'kidlanganidek, iqtisodiy munosabatlarning bugungi

sur'atlari bilan turli sohada, jumladan, energetika, infratuzilma va yuqori texnologiyalar sohalarida istiqbolli loyihalarini amalga oshirish o'zaro savdo hajmini 2 milliard AQSH dollardan ziyodga oshirish mumkin.

Tashrif davomida muhim hujjatlar to'plami — savdo, mudofaa ishlab chiqarishi, iqlim o'zgarishi, turizm, madaniyat va ta'lim sohalarini qamrab olgan kelishuv va memorandumlar imzolandi. Ushbu kelishuvlar biznes

imkoniyatlarini kengaytirish va muhim sohalarida Pokiston — O'zbekiston hamkorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Tashrif doirasida bo'lib o'tgan Pokiston — O'zbekiston biznes forumi, ishbilarmon doiralari vakillari o'rtasidagi "V2V" uchrashuvlari tijorat aloqalarini mustahkamlash, yangi sarmoyaviy loyihalarni ishlab chiqish va qo'shma korxonalarini tashkil etishga zamin yaratadi.



# JANUBIY VA MARKAZIY OSIYO MINTAQALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI MUSTAHKAMLASHDA O'ZBEKISTON PREZIDENTINING ROLI JUDA KATTA



Davlat rahbarlari iqtisodiy aloqalardan tashqari mintaqaviy xavfsizlik va ko'p tomonlama hamkorlik masalalarini ham muhokama qildilar. Ikkala davlat ham Markaziy va Janubiy Osiyoda barqarorlikni saqlash hamda mintaqaviy savdo yo'liklarini mustahkamlashda umumiy manfaatlariga ega.

Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning roli juda yuqori. Ushbu muhim omil Pokistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim savdo va tranzit markazi sifatidagi mavqei bilan bir qatorda har ikki tomonning mintaqaviy taraqqiyot va iqtisodiy integratsiya haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi.

Pokiston va O'zbekiston o'zaro hamkorlikni yangi cho'qqilarga olib chiqish, mintaqada uzoq muddatli farovonlik va barqarorlikni ta'minlash uchun savdo, investitsiya va mudofaa sohalarida sheriklikni chuqurlashtirmoqda.

Muxtasar aytganda Bosh vazir Shahboz Sharifning tashrifi O'zbekiston – Pokiston munosabatlarini mustahkamlash, diplomatik va iqtisodiy hamkorlikning yangi uflariga yo'l ochishda muhim qadam bo'ldi.

## Xolid Taymur AKROM, "Umumiy kelajak jamiyati" tahlil markazi ijrochi direktori:

– Pokiston va O'zbekiston rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar ikki tomonlama strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Har ikki davlat o'zaro savdo hajmini kengaytirishga intilayotgan ekan, uning natijalari mintaqaviy bog'liqlik tashabbusini yangi loyihalarni bilan boyitadi. Diplomatik munosabatlarni mustahkamlaydi, iqtisodiy hamkorlik va o'zaro farovonlikni rag'batlantiradigan sheriklikning yangi yo'nalishlari bo'yicha kelishib olish imkoniyatini beradi.

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning O'zbekistonga tashrifi chog'ida ikki davlatning iqtisodiyotining turli sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lgan intilishini kuchaytiruvchi qator ikki tomonlama shartnomalar imzolandi.

Tashrifning asosiy nuqtasi Pokiston – O'zbekiston biznes forumi bo'lib, unda yetakchi biznes vakillari "V2V" formatidagi uchrashuvlarda ishtirok etdi. Ushbu forum yakunlari Pokiston va O'zbekiston bizneslari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali savdo aloqalarini mustahkamlaydi, sarmoyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga zamin yaratadi.

Yangi kelishuvlarning imzolangan savdo, iqlim o'zgarishi, mudofaa sohasidagi hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuv kabi sohalarida ikki tomonlama aloqalarni yanada mustahkamlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Mamlakatlarimizni iqtisodiy va strategik sheriklikni barcha sohalarida kengaytirish, barqaror rivojlanish va mintaqaviy taraqqiyotga ko'maklashish istagi birlashtiradi.

Pokiston va O'zbekiston mintaqaviy va global tinchlikka ko'maklashish, xususan, Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash borasida umumiy qararlarga ega.

Har ikki davlat mintaqaviy savdo aloqalari va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, jumladan, terrorizmga qarshi kurash masalalarida o'z rolini kuchaytirish niyatida.

Bosh vazir Shahboz Sharifning tashrifi Pokiston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash uchun katta salohiyatga ega. Bu nafaqat ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga zamin yaratadi, balki mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni yanada oshirishga ham xizmat qiladi. Strategik sheriklikni mustahkamlash har ikki davlatning o'sib borayotgan ikki tomonlama aloqalaridan uzoq muddatli foyda olishda davom etishini ta'minlaydi.

Adam SAUD, "Bahriya" universiteti gumanitar va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, professor:

– Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning O'zbekistonga bo'lgan tashrifi ikki qardosh xalq o'rtasidagi aloqalar kundankun mustahkamlanib borayotgan bir pallaga to'g'ri kelmoqda.

Rasmiy Islomobod va Toshkent o'zaro aloqalarni ko'p tomonlama darajada, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi holatida ham mustahkamladi.

O'zaro savdoni yanada rivojlantirish, madaniy almashinuvlarni mustahkamlash, strategik sheriklik uchun yangi umumiy asoslarni izlash, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha yaqin hamkorlik, Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligini ta'minlash tashabbusi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish – bulning barchasi ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar.

Umumiy din, tarix va madaniyat xalq

diplomatiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda pokistonlik talabalar soni sezilarli darajada oshgani bu mamlakatning Pokiston jamiyati uchun ahamiyatidan dalolat beradi. Bunday o'zaro hamkorlik faol ravishda qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Ziyorat turizmi, albatta, muhim yo'nalish hisoblanadi. Aksariyat pokistonliklar Imom Buxoriy va Imom Termiziy merosiga hurmat bilan yondashadi. Shuningdek, Pokistonda o'zbek xalqining buyuk ajdodlari Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur e'zozlanadi.

"Uzbekistan Airways" AJ pokistonlik yo'lovchilarga go'zal O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri va eng qisqa masofani bosib o'tishni ta'minlash barobarida Markaziy Osiyo, MDH va Yevropaning boshqa mamlakatlarga sayohat qilish uchun muqobil yo'nalish taqdim etishi mumkin.

Har ikki tomon ilm-fan, bilim almashish, texnologiya va rivojlanish sohasida bir-birini qo'llab-quvvatlamog'da.

Ishonchim komilki, O'zbekistonda bu galgi tashrif ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirishga yangi sur'at bag'ishlaydi.

## Mahmud ul-Hasan XON, «Janubiy Osiyo va xalqaro tadqiqotlar» tahlil markazi ijrochi direktori:

– Tashrif O'zbekiston va Pokiston hamkorligini barcha muhim yo'nalishda, xususan savdo, transport, energetika, mintaqaviy xavfsizlik, mudofaa, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarida mustahkamlash hamda strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirishda yangi bosqichning boshlanishi bo'ladi.

Mutaxassislariga ko'ra imzolangan hujjatlar yangi loyihalarni uchun mustahkam poydevor bo'lib, ularni hayotga tatbiq etilishini tezlashtiradi.

Tomonlar biznes, transport va logistika, huquqni muhofaza qilish, terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish, ommaviy axborot vositalari, madaniyat, ta'lim va boshqa sohalarida samarali idoralarni va vazirliklarni mexanizmlarni yo'lga qo'yishga intilmog'da.

To'qimachilik, moda, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika va axborot texnologiyalari kabi sohalarida yangi qo'shma korxonalar yaratish uchun ulkan salohiyat mavjud.

Ikki davlat yetakchilarining muzokaralari yakunlari va erishilgan kelishuvlar o'zaro savdo hajmini oshirish, sarmoyalarni jalb qilish, savdo uylari va madaniyat markazlari tashkil etish, biznes-forumlar, "V2V" va "G2D" uchrashuvlari, sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rgazmalari va boshqa tadbirlarni o'tkazishga kuchli turki beradi.

Pokiston va O'zbekiston "GSP+" tizimi maqomiga ega bo'lib, ushbu imtiyoz ularning to'qimachilik, tikuvchilik va moda sanoati kabi turli sohalaridagi hamkorligini muvofiqlashtirish istiqbollari yanada kengaytiradi. O'zbekistonning turli hududidagi to'qimachilik korxonalaridan birgalikda foydalanish qo'shimcha afzallik berishi mumkin.

Har ikki davlat barqaror tranzit tizimini yaratish, savdo-iqtisodiy maqsadlarga erishish, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini jadallashtirish uchun transport-logistika koridorlarini diversifikatsiya qilish ushbu ishlarni qo'llaydi.

Elektron tijorat va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlarni joriy etish iqtisodiy diplomatiyaning yana bir istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiy integratsiya va sanoat kooperatsiyasining yangi innovatsion, integratsiyalashgan va raqamli modelini shakllantirish ham ikki tomonlama kun tartibining muhim bandi sifatida qaralmoqda.

Xususiy sektor vakillarining iqtisodiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishi, ular tomonidan har ikki davlat hududida barpo etilayotgan savdo uylari, zamonaviy ishlab chiqarish va sanoat obyektlari strategik sheriklikni yanada mustahkamlamoqda.


Ishonamanki, tashrif yangi marralarning boshlanishi bo'ladi. Shuningdek, u Pokiston va O'zbekiston xalqlariga hamda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalariga barqarorlik va farovonlik olib keladi.

## Asad Majid XON, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi:

– Tashrif muhim voqea bo'ldi, chunki Pokiston ham, O'zbekiston ham iqtisodiy hamkorlik tashkilotining muhim a'zolari va faol ishtirokchilari hisoblanadi.

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash tarafdori bo'lgan tashkilot sifatida IHT yetakchilik darajasidagi bunday ishtirok nafaqat mamlakatlarni ikki tomonlama asosda yaqinlashtirishda muhim rol o'ynashiga, balki mintaqaviy iqtisodiy o'sish, savdo integratsiyasi va aloqadorlik bo'yicha mazkur tuzilma kun tartibini ilgari surishda yordam berishiga qat'iy ishonadi.

Biz ushbu muhim tashrif natijalariga ijobiy qaraymiz va u mintaqalarni hamkorlikni yanada jadallashtirishga umid qilamiz.



"Dunyo" AA.

# ENERGETIKA SOHASINI MODERNIZATSIYALASH YO'LIDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Saudiya Arabistoni "ACWA Power" kompaniyasining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Jon Zaidi bilan uchrashdi.



Suhbat chog'ida ikki mamlakat rahbarlarining do'stona munosabatlari va siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston – Saudiya munosabatlari yanada rivojlanib, hamkorlik jadal

sur'atda kengayayotgani, yirik investitsiya loyihalari, eng avvalo, energetika sohasida ilgari surilayotgani yuqori baholandi.

Saudiya Arabistoni Qirolligining O'zbekistonga kiritgan investitsiyalarining umumiy hajmi 27,3 mlrd. dollari tashkil etib, 59 ta loyihani qamrab olgan. "ACWA Power" kompaniyasi mamlakatimizning turli hududlarida energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va "yashil" energetikani rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarni ilgari surishga hissa qo'shayotgani, O'zbekistonda

"yashil" energetika sohasida strategik hamkoriga aylangani alohida qayd etildi.

Kompaniyaning O'zbekistonda "yashil" vodorodni rivojlantirishdagi ko'magi yuqori baholandi, vodorod qurilmalarini qurish loyihalarini yuritmiz uchun zarur va istiqbolli ekani e'tirof etildi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda "yashil" energetikaga oid strategik dasturlarni joriy etishga qaratilgan zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish masalalari ham muhokama qilindi.

Muloqot yakunida o'zaro manfaatli hamkorlik uzoq muddat davom etishi, istiqbolida yanada kengayib borishiga ishonch bildirildi.

# MUHOKAMA MARKAZIDA – PARLAMENTLARARO ALOQALAR

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev va Fransiyanning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushez o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida O'zbekiston va Fransiya o'rtasida yuqori darajadagi siyosiy va diplomatik, o'zaro manfaatli hamkorlik ikki davlat yetakchilarining do'stona munosabatlari tufayli tobora rivoj topayotgani qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ta'lim sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlik loyihalari ijobiy natijalar bermog'da. Xalqaro maydonda ham ikki davlat hukumatlari va parlamentlari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar qo'llab-quvvatlanayotgani, kelgusida hamjihatlikni rivojlantirish lozimligi ta'kidlandi.

Tomonlar parlamentlararo aloqalarini

mustahkamlash maqsadida Fransiya hamda O'zbekiston parlamentlarining do'stlik guruhlari va qo'mitalari bilan qonun ijodkorligi borasida tajriba almashish, hududiy Kengashlar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish masalalarini muhokama qildi.

Elchi Fransiya parlamenti vakillari 2025-yil 5 – 9-aprel kunlari Markaziy Osiyo tarixida ilk bor O'zbekistonda o'tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etishga katta qiziqish bildirayotganini ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

# GENDER TENGLIK VA XALQARO E'TIROF

O'zbekistonning gender tenglik sohasidagi yutuqlari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmog'da. Masalan, Jahon banki indeksida mamlakatimiz dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 davlat qatoriga kiritildi. Ochiq gender ma'lumotlar indeksida O'zbekiston eng yaxshi 20 davlat qatorida qayd etildi. Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuritiladigan "Parlamentdagi ayollar" reytingida esa mamlakatimiz 193 davlat orasida 36-o'ringa ko'tarildi.

Bu haqda Oliy Majlis Senatidagi rahbar ayollar uchrashuvida aytiladi.

Unda senatorlar, davlat va jamiyat boshqaruvida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar, turli vazirlik va idoralar rahbarlari, olimlar, jamoat faollari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvda Prezidentimiz tashabbusi bilan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi faolligini oshirish borasidagi tizimli islohotlar muhokama qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 58-moddasida davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat hayotining barcha sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilab berilgan. Shu maqsadda yuzga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rovonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Xotin-qizlar masalasi

institutsional asoslar takomillashtirilib, mahalliy darajadan respublika darajasigacha izchil tizim yaratildi. "Mahalla yettilligi" va "Inson" markazlari ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar bilan maqsadli ish olib bormog'da. Davlat organlarida gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashlari tashkil etildi.

So'nggi yetti yilda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga yetdi. Qonunchilik palatasida bu ko'rsatkich 32 foizdan 38 foizga, mahalliy Kengashlarda 25 foizdan 32,5 foizga oshdi. Rahbarlikka tayyorlangan ayollar zaxirasi yaratilgan bo'lib, shu maqsadda 2022-yildan "Rahbar ayollar" maktabi ish boshladi. Oliy ta'lim muassasalarida, olimlar safida xotin-qizlar ulushi ortib, ular uchun doktorantura maxsus kvotalar ajratilmog'da.

Uchrashuv yakunida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha amaliy taktiklar bildirildi.

"Xalq so'zi".

# QISHLOQ XO'JALIGIDA KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR BERILDI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasiga doir vazifalar ijrosi yuzasidan qishloq xo'jaligi vazirining axboroti eshitildi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan o'tgan 2024-yilda Strategiyaga muvofiq sohani rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 467 trln. so'mni tashkil etib, 2023-yildagiga nisbatan 3,1 foiz o'sgan. Yangi mevali bog'lar va uzumzorlar barpo etilib, samaradorligi past bo'lgan bog' va uzumzorlar rekonstruksiya qilingan. Natijada 2,3 mlrd. dollarlik mahsulot eksport qilingan.

O'tgan yili 1,3 mln. gektarga yaqin sug'oriladigan hamda 240 ming gektar lalmi maydonda boshqoqli don ekinlari ekilib, jami 8,9 mln. tonna hosil yetishtirilgan, o'rtacha hosildorlik gektarga 85,1 sentnerga yetkazilgan.

Tuproq sifati, sho'rlanishi,

agrokimyoviy kartogrammasi, geobotanik tadqiqot natijalarini masofadan monitoring qilish, geolokatsiya bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida "Field Maps" mobil dasturi ishga tushirilgan. Sug'oriladigan 821 ming gektar yer maydonlarida tahliillar o'tkazilib, kartogrammalari tuzilgan. Aholi daromadini ko'paytirish bo'yicha ilk bor xonadonbay usulida bajariladigan ilmiy loyihalar mexanizmi joriy etilgan.

Senatorlar majlisida Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ijobiy ishlarga to'xtalar ekan, bir qator yo'nalishlarda kamchiliklarga yo'l qo'yilganini ham aytib o'tdi.

Mahalliy seleksiyaga mansub yangi nav va duragaylarni

yetishtirish bo'yicha ishlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani, yetishtirilayotgan kartoshka, meva-sabzavot, poliz va uzum mahsulotlarini muzlatkichli sig'irlarda saqlash imkoniyati pastligi qayd etildi.

Suv ta'minoti bilan bog'liq muammolar mavjudligi, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish ishlari yetarli emasligi, eksportbop ekinlar ekish uchun mo'ljallangan yer uchastkalarini elektron onlayn auktsion savdolari orqali sotish ishlari sustligi ta'kidlandi.

Kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlar barqarorligini ta'minlash, urug'chilikni rivojlantirish, logistika markazini tashkil qilishni jadallashtirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda sohaga resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

# HAMKORLIKNING NAVBATDAGI BOSQICHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Pokiston Bosh vaziri tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokaralar o'tkazdi.

## Munosabat

Unda O'zbekiston – Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlashning barcha yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Yetakchilar ko'p qirrali hamkorlik rivojlanib borayotganini qayd etishdi.

Faol siyosiy muloqotlar, samarali parlamentlararo va idoralararo almashinuvlar davom etmoqda. Karachi va Toshkentda savdo uylari ochildi. Toshkent va Lahor o'rtasida aviaqatnovlar tiklandi. Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, biznes-forumlar va O'zbekiston milliy sanoat ko'rgazmasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Muzokaralarda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Qabul qilingan "Yo'l xaritasi" asosida tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo'yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish muhimligi ta'kidlandi.

Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim doirasida tovarlar ro'yxatini kengaytirish, fitosanitariya va karantin talablarini, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish,

standartlarni yaqinlashtirish, elektron savdo platformalarini integratsiya qilish, xaridlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash, banklararo hisob-kitoblar mexanizmlarini takomillashtirish va boshqa ustuvor vazifalar belgilandi.

Yetakchi kompaniyalarning farmatsevtika, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, geologiya va mineral resurslar, to'qimachilik, charmo sanoati va boshqa tarmoqlardagi kooperatsiya loyihalarni amalga oshirish rejalarini ko'rib chiqildi. Ishbilarmonlik va madaniy aloqalarni rag'batlantirish maqsadida davlatimiz rahbari O'zbekistonda ikki mamlakat hududlari forumini o'tkazishni taklif etdi.

Transport jihatdan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish va tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalariga to'xtalindi. Transaf'gon temir yo'lini qurish loyihasi amalda ilgari surish maqsadida birgalikdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhim ekani ta'kidlandi. Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi shu yil iyul

o'yida Lahor shahrida o'tkaziladigan bo'ldi.

BMT, Qo'shimlaslik harakati, Islom hamkorlik tashkiloti, SHHT va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligiga urg'u berildi. Keng ko'lami hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadida Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini ta'asis etish va birinchi yig'ilishini kelgusi yilda o'tkazishga kelishib olindi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha qo'shma "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Pokiston Bosh vazirining mamlakatimizga rasmiy tashrifi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, savdo, transport, energetika va xavfsizlik kabi muhim sohalarida sheriklik aloqalarini kengaytirishda yangi bosqich bo'ladi. Mintaqa barqarorligi va rivojlanishiga hissa qo'shgan holda uzoq muddatli sheriklikning yangi istiqbollarni ochib beradi.

Odiljon MAMATKARIMOV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

## Ombudsman instituti:

## INSON HUQUQLARI HIMOYASI – JAMIYATNING USTUVOR VAZIFASI

Inson huquqlari bashariyat tamaddunining eng muhim va qimmatli yutuqlaridan biri bo'lib, uni himoya qilish jamiyatda har bir inson uchun birlamchi bo'lgan umumiy qadriyat hamda mas'uliyatdir. Ayni paytda inson huquqlari muhofazasi davlatni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishning zaruriy shartidir. Shu nuqtayi nazardan, Ombudsmanning inson huquqlari bo'yicha milliy institut sifatida aholining davlat organlariga, adolat va qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchini oshirishdagi roli muhim ahamiyatga ega.

## Jarayon


O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha vakil instituti 1995-yilda tashkil etilib, fuqarolar huquqlarining mustahkam himoyachisi va qonun hujjatlari ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi subyekti sifatida ish boshladi. 1997-yilda esa mamlakatimizda MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi.

Ta'kidlash lozimki, Ombudsman institutining huquqiy asoslarini mustahkamlab, uning vakolatlarini aniq belgilab bergan ushbu hujjat normalari MDH davlatlari tomonidan o'ziga xos o'zbek modeli sifatida e'tirof etildi, hatto bir qator mamlakatlarda undan andoza olindi.

Mana, o'ttiz yildirki, Ombudsman instituti davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim ko'priki sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda Ombudsman – nafaqat inson huquqlarini himoya qiluvchi, balki bu borada tizimli tahlillar olib boruvchi, murojaatlarining barchasini xolisona ko'rib chiquvchi mustaqil tashkilotdir, deb baralla ayta olamiz.

Shubhasiz, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi Ombudsman instituti faoliyatiga inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi – zamonaviy hamda samarali mexanizmlarini joriy etishda beqiyos o'ringa ega bo'ldi. Chunki aynan Harakatlar strategiyasi doirasida Ombudsmanga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi ko'rib chiqishi uchun qonunga muvofiq masalalar kiritish, uning majlislarida qatnashish va sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bayon etish, fuqarolar manfaatlarini ko'zlab arizalar va da'volar bilan sudlarga davlat boji to'lamasdan murojaat qilish huquqlari berildi. Shuningdek, Ombudsman davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillarining axborotini ehitish masalasi ko'rib chiqish bo'yicha taklif bilan Oliy Majlis palatalarining qo'mitalariga murojaat qilish, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi qonun hujjatlari buzilgan holatlarda bunga sabab bo'luvchi omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish kabi qator vakolatlariga ega bo'ldi. Qolaversa, 2019-yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) huzurida qiyoslovning oldini olish bo'yicha Milliy preventiv mexanizm instituti joriy etildi va tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi.

2024-yil 15-noyabrda kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi yangi qonun bilan mamlakatimizda birinchi marta Ombudsman institutiga qonunchilik tashabbusi huquqi berilgani esa inson huquqlarini himoya qilishda yanada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini bermokda. Qonun Ombudsman vakolatlarini hamda uning hududlardagi ishtirokini kengaytirib, qiyoslovga solish hamda boshqa g'ayriinsoniy yoki qadriyatini kamsituvchi muomalaning oldini olishdagi faoliyatini yanada kuchaytirish uchun zarur shart-



Feruza ESHMATOVA, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

sharoit yaratdi, uning inson huquqlari bo'yicha milliy institut sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda murojaatlar bilan ishlash tizimini raqamlashtirish va uning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani fuqarolarni Ombudsmanga murojaat qilish jarayonidagi ortiqcha ovoragarchiliklardan xalos etib, ularning shikoyatlarini tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi va adolat qaror topishi uchun zamin yaratmoqda. Bunda davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-sentabrdaq Farmoniga asosan Ombudsmanning mintaqaviy vakillari o'z faoliyatini doimiy asosda boshlagani ham muhim o'rin tutmoqda. Bunday yondashuv joylardagi muammolarni hududning o'zida, to'g'ridan-to'g'ri o'rganish imkonini kengaytirdi. Fuqarolarning arizalari, mahkumlar va mahbuslarning murojaatlari chuqur tahlil qilinib, ularning huquqlari tiklanishi uchun aniq mexanizmlar yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizning inson huquqlari buzilishlariga nisbatan murosasiz pozitsiyasi tufayli Ombudsman institutining xalqaro maqomi kuchayib, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada mustahkamlandi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, 2020-yilda Global alyans tomonidan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) faoliyati Parij prinsiplariga muvofiq qiyoslov bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazilgan va unga "V" maqomi berilgan. Yurtimizda inson huquqlarini ta'minlashdagi amaliy tajriba va bu bo'yicha qonunchilikning takomillashuvi, shuningdek, Ombudsman faoliyatining kuchaytirilayotgani natijasida nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy Ombudsmanning xalqaro maqomini oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Boshqacha aytganda, Ombudsmanning Parij prinsiplariga muvofiq bo'yicha "A" maqomiga da'vogarlik qilishiga zamin yaratildi.

Parij tamoyillari inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro maydonda tan olinishida muhim ahamiyati kasb etadi. Bu institutlar ushbu tamoyillarga rioya qilish orqali inson huquqlarini samarali himoya etish va ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar rivojlangan davlatlar tajribasi bilan hamohang. Bir narsa aniqki, inson huquqlarini himoya qilish – davlat va jamiyatning umumiy vazifasi bo'lib, mamlakatimiz bu borada barcha sa'y-harakatni birlashtirib odimlamokda. Ombudsman instituti esa mazkur jarayonda fuqarolar murojaatlari asosida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga hukumat e'tiborini qaratib kelmoqda.

Ular tahlili va monitoringi asosida davlat organlari tomonidan bola huquqlari hamda qonuniy manfaatli buzilishiga yo'l qo'yilgani yuzasidan ta'sir hujjatlari orqali munosabat bildirilib, Bolalar ombudsmani tomonidan 9 ta ogohlantirish, 3 ta taqdimnoma, 18 ta xulosa va 6 ta sud hujjati ustidan protest keltirish to'g'risida itimosnoma kiritilgan. Bola huquqlari sohasidagi qonunchilikda mavjud muammolar tahlili negizida davlat organlari va tashkilotlarga 40 ta tahliliy axborot kiritilgan.

Murojaatlarni o'rganish natijasida aniqlangan bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'rovonlik holatlari yuzasidan 14 ta jinoyat ishi hamda 18 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Ta'lim muassasalarida bolaga jismoniy zo'rovonlik qilgani va o'z kasbiy faoliyatiga sovuqqonlik bilan qaragani uchun 7 nafar pedagog xodim ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, 22 nafariga nisbatan intizomiy jazo qo'llanilgan.

Hisobot davrida bolaga nisbatan qo'pol muomalada bo'lganligi uchun huquqni muhofaza qiluvchi organning 3 nafar xodimiga intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan. Bolaning sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilganligi sababli 2 nafar fuqaro ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Feruza ESHMATOVA, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## YOSH AVLOD MANFAATLARI MUHOFAZASI VA INSONPARVARLIK TAMOYILI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi, shuningdek, yer osti suv resurslarini muhofaza qilish sohasini rivojlantirish, homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish, yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Muhokamalarda asosiy e'tibor ularning dolzarbligi, zarurati va ahamiyati, ayniqsa, aholi manfaatlariga qay darajada mosligiga qaratildi.



## Bolalar ombudsmani ma'ruzasi ko'rib chiqildi

Dastlab Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning 2024-yildagi bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishi holati haqidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi Qonun bilan Bolalar ombudsmani faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Unga har yili Oliy Majlis palatalariga bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining rioya etishi holati haqidagi ma'ruzasini taqdim qilishi belgilab qo'yildi.

Mazkur ma'ruzada Bolalar ombudsmanining Oliy Majlis palatalariga taqdim etilgan birinchi ma'ruzasi bo'lib, unda mamlakatimizda bola manfaatlarini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarining amalga oshirilishi, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bola huquqlariga oid xalqaro standartlar va milliy qonunchilikka rioya qilish holati bo'yicha ma'lumotlar aks etgan.

O'zbekistonda bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan Bolalar ombudsmanining parlament nazorati faoliyatidagi asosiy erishilgan natijalari ham o'rin olgan.

Hisobot yilida Bolalar ombudsmani nomiga



O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar tomonidan jami 1 064 ta murojaat kelib tushgan. Bu Bolalar ombudsmani institutiga va uning faoliyatiga bo'lgan ishonch ortganini bildiradi.

Bola huquqlari bo'yicha vakil Surayyo Rahmonovanning aytishicha, 2024-yilda Bola huquqlari bo'yicha vakilning 35 ta shaxsiy qabullari tashkil etilgan bo'lib, ularga jami jismoniy va yuridik shaxslarning 160 ta murojaati kelib tushgan.

Ular tahlili va monitoringi asosida davlat organlari tomonidan bola huquqlari hamda qonuniy manfaatli buzilishiga yo'l qo'yilgani yuzasidan ta'sir hujjatlari orqali munosabat bildirilib, Bolalar ombudsmani tomonidan 9 ta ogohlantirish, 3 ta taqdimnoma, 18 ta xulosa va 6 ta sud hujjati ustidan protest keltirish to'g'risida itimosnoma kiritilgan. Bola huquqlari sohasidagi qonunchilikda mavjud muammolar tahlili negizida davlat organlari va tashkilotlarga 40 ta tahliliy axborot kiritilgan.

Murojaatlarni o'rganish natijasida aniqlangan bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'rovonlik holatlari yuzasidan 14 ta jinoyat ishi hamda 18 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Ta'lim muassasalarida bolaga jismoniy zo'rovonlik qilgani va o'z kasbiy faoliyatiga sovuqqonlik bilan qaragani uchun 7 nafar pedagog xodim ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, 22 nafariga nisbatan intizomiy jazo qo'llanilgan.

Hisobot davrida bolaga nisbatan qo'pol muomalada bo'lganligi uchun huquqni muhofaza qiluvchi organning 3 nafar xodimiga intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan. Bolaning sha'ni va qadr-qimmatini poymol qilganligi sababli 2 nafar fuqaro ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

2024-yilda fuqarolarning murojaatlari va bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarga oid sud xabarnomalarida asosida Bolalar ombudsmani va uning kotibiyati xodimlari 46 ta fuqarolik, jinoyi va ma'muriy ishlar yuzasidan sudlarda kuzatuvchi sifatida qatnashgan.

Deputatlar bolalar manfaatlariga oid masalalarda shikoyatlar (xabarlar) berishning samarali va qulay mexanizmini yaratish maqsadida respublikaning barcha hududida faoliyat yuritayotgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari hamda 24-sonli tarbiya koloniyasida Bolalar ombudsmani shikoyat va xabar berish yuzasidan "Bolalar ombudsmani qitisi" o'rnatilganini sohada amalga oshirilayotgan ishlarining muvaffaqiyati sifatida e'tirof etdilar.

Shu bilan birga, Bolalar ombudsmaniga "murojaat.gov.uz" platformasi orqali murojaat qilish yo'lga qo'yilganiga e'tibor qaratib, bunday aloqa mexanizmlari bola huquqlarini ishonchli va samarali himoya qilinishiga bevosita xizmat ta'kidlab o'tildi.

Deputatlar tomonidan Bolalar ombudsmanining 2024-yildagi faoliyati haqidagi ma'ruzasi ijobiy baholanib, uning faoliyatini yanada takomillashtirish, bolalarning yangi tahrirdagi Konstitutsiya va boshqa qonunlarda kafolatlangan huquq hamda erkinliklarini ta'minlash bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

Majlisda siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari Ombudsman ma'ruzasi yuzasidan o'z munosabatlarini bildirib o'tdi. Ko'rib chiqilgan masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Qonun loyihasi mas'ul qo'mitaga qaytarildi. Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun

uchastkalari va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerlarga bo'lish bo'yicha aniq normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, sug'oriladigan yerlarni qat'iy muhofaza qilish, bunday yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish masalasini faqatgina sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti va tuproq sifati bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar yuz bergan taqdirda ko'rib chiqilishi yuzasidan huquqiy me'yorlar belgilanyapti. Zakira fondi tarkibidagi yer uchastkalari hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquq bekor qilinishi munosabati bilan tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati organlari tasarrufiga qaytgan bo'sh turgan yer uchastkalari o'rtasidagi farqni aniq belgilab qo'yish nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan deputatlar bergan takliflar asosida undagi me'yorlar takomillashtirilgani qayd etildi. Xususan, loyihada qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi yerlarda yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlariga muvofiq obyektarni joylashtirishning huquqiy asoslari o'z aksini topmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yer uchastkalaridan foydalanish shartlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

## Aybi isbotlanmaganlarga huquqiy chora ko'rilmaydi

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash hamda huquqbuzarliklar sodir etishi ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan profilaktik choratadbirlarini kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi esa tazyiq yoki zo'rovonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan davlat himoyasini ta'minlash amaliyotini kengaytirishni nazarda tutadi.

Loyiha bilan profilaktik hisobga qo'yiladigan shaxslar doirasi amaldagi 6 toifadan 3 toifaga, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun profilaktik hisobga olinayotgan moddalar 28 tadan 12 taga kamaytirilib, hozirda zaruriy hisoblangan qo'shimcha 2 ta holat bilan to'ldirilmoqda.

Xususan, oilaviy zo'rovonlik sodir etganligi uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59<sup>2</sup>-moddasiga asosan javobgarlikka tortilgan hamda sodir etgan ma'muriy huquqbuzarligi uchun sud tomonidan transport vositasini boshqarish huquqidagi mahrum qilingan shaxslarni profilaktik hisobga olinadigan shaxslar qatoriga kiritish nazarda tutilyapti.

Qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida ayrim toifadagi shaxslarga ularning ayblik masalasi hal etilmasdan turib huquqiy ta'sir chorasi qo'llash amaliyoti bekor qilindi. Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibi takomillashtiriladi

Majlisda homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham birinchi o'qishda konseptual jihatdan muhokama qilindi.

Mamlakatimizda ehtiyojmand aholi qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda nafaqat davlat organlari, balki fuqarolarimiz ham xayriya, ehson va saxovat ishlarida tashabbuskorlik ko'rsatmoqda.

Lekin amaldagi qonunchiligimizda homiylik xayriyalarini yig'ish tartibi, bu sohadaqiy subyektlar faoliyatining ochiqligi, ularga ajratilgan mablag'lar sarflashining shaffofligi tizimi mukammal emas. Shuningdek, homiylik to'g'risidagi tartib-qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik ham belgilanmagan. Bu esa fuqarolarning asosli e'tirozlariga, homiylik faoliyati bilan qonuniy va vijdonan shug'ullanuvchi nodavlat

notijorat tashkilotlariga bo'lgan ishonchning susayishi hamda ayrim shaxslarning homiylik mablag'larini o'zlashtirishga sabab bo'lmoqda.

Ushbu qonun loyihasi homiylik faoliyati subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy qilish, homiylik tashkilotlarining faoliyati ochiqligini va fuqarolarning ularga nisbatan ishonchini oshirish hamda homiylik faoliyatini amalga oshirish uchun pul mablag'larini yig'ishni qonuniy tartibga solishni nazarda tutadi.

Loyihada homiylikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha mexanizmlari, homiylik xayriyalarini yig'ish, xayriya qutisini o'rnatish va undan foydalanish tartiblari, homiylik xayriyalari to'g'risidagi axborotni oshkor etish va bu jarayonning ochiqligini ta'minlash shartlari belgilanmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi homiylik xayriyalarini yig'ish tartibini buzishning oldini olish, homiylik tashkilotlari faoliyati shaffofligini ta'minlash hamda ularga nisbatan fuqarolar ishonchining ortishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Soliq kodeksiga

## o'zgartirishlar kiritilmoqda

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.

Mazkur loyiha bilan Soliq kodeksiga ortiqcha undirilgan soliq summasini soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlari uchun hisobga olish tartibini soddalashtirish, ayrim toifadagi shaxslarga soliq imtiyozlarini taqdim etish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Majlisda deputatlar qonun loyihasida soliq to'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi huquqiy asoslar takomillashtirilayotganini alohida qayd etdi.

Shuningdek, Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf qilishda qatnashgan shaxslarni rag'batlantirish hamda qishloq xo'jaligiga suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishga qaratilgan soliq ma'murchiligi yanada kuchaytirilayotgani ta'kidlandi.

Deputatlar fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi soliq to'lovchilarga qulay shart-sharoit yaratishda, ijtimoiy himoya qilish tizimini, shuningdek, soliq ma'muriyatidagi yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

## O'zbekiston – Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichi

Majlisda "O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnomani (Toshkent, 2024-yil 23-avgust) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu Shartnoma ikki davlat rahbarlari tomonidan 2024-yil 23-avgust kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalari Oliy Davlatlararo kengashining birinchi majlisi yakunlari bo'yicha imzolangan.

Oxirgi yillarda mamlakatimiz hukumati tomonidan olib borilayotgan pragmatik va ochiq tashqi siyosat natijasida qo'shni davlatlar bilan yaxshi diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Bu borada O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohadaqiy hamkorlik rivojlanib, 2024-yil 23-avgust kuni ikkita davlat rahbarlari uchrashuvi natijasida O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma imzolandi. Bu bilan O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlarini davlatlararo hamkorlikning eng yuqori darajasiga ko'tarishga erishildi.

Hujjat tashqi siyosat, parlament diplomatiyasi, mudofaa va xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va investitsiyaviy faoliyatni rivojlantirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, energetika, AKT, IT-xavfsizlik va SI, transport tizimi, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy hamda turizm sohalarda, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, forumlar doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishni o'z ichiga olgan.

Mazkur Shartnoma ikki mamlakat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va barqaror iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlatlararo munosabatlarning yangi bosqichini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

"Xalq so'zi".

# DORILAMON KUNLAR SAODATI

Jonajon xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi mardligi qahramonliklari avlodlarga ibrat maktabini o'tamoqda, desak, mubolag'a emas. Istiqbol va tinchlik uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiligini unutmamaklik, ularning nomini yosh avlodga yetkazish yangi O'zbekiston tanlagan yo'lining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining yaqinda e'lon qilingan "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmoni va "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida"gi qarori bu yo'naltirishdagi ishlarining uzviy davomidir.

Qayd etish joizki, ushbu muhim hujjat Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylari, shuningdek, Vatan ozodligi, bugungi dorilamon kunlar uchun kurashgan ajdodlarimizga chuqur ehtirom ifodasidir.

## Dil so'zi

### Zamonamiz fayzi bo'lakcha

**Akmal AKROMOV,**  
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Toshkent shahri):

Ko'cha-ko'ya bir-biriga o'yinchoq to'pponcha o'qalayotgan bolakaylarni ko'rsam yuragim og'rib, ichimdan nimadir uzilganday bo'ladi. O'zimcha ularni ko'ya qo'yaman, tinchlikning qadri haqida o'pkam to'lib pand-nasihat qilaman.

"Urush, noming o'chsin!" deb bejiz aytilmagan. Axir u qanchadan-qancha yostiqni quritdi, munis onalarni aziz farzandani judo qildi, gulday yuvonlarni beva, bolalarni yetim qoldirdi. Menimcha, urushda g'oliblar bo'lmaydi...

Ikkinchi jahon urushi... Qonli yillar, yig'i ovozlari, ulkan qirg'inbarot. O'shanda men ham 1942-yildan to 1945-yilga qadar fashist bosqinchilariga qarshi jang qildim. Afsuski, 1945-yili qattiq yaralandim

va demobilizatsiya uchun chaqirib olindim. Ammo bundan so'ng umidlarim so'nib, hayotim tugab qolgani yo'q. Tez orada urush tugadi, boshimiz uzra to'plangan qora bulutlar o'rtidan quyosh ko'rindi, baxtli va osuda davr boshlandi.

Xotirjam kunlarimizni el koriga yarashdek baxt bilan bezash ilinjida ishga otlandim. O'tgan yillar mobaynida ko'p joylarda faoliyat yuritdim, qayerda ishlamay, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz, oilamiz va yaqinlarimiz ertasi uchun ter to'kdim.

Mamlakatimizda urush faxriylariga hamisha alohida e'tibor qaratiladi, ularning safida borligimdan faxrlanam.

Prezidentimizning biz, urush qatnashchilarini rag'batlantirish



borasidagi Farmonini eshitib, behad xursand bo'ldim, ko'ksim tog'dek ko'tarildi. Axir shu yoshga yetganda bunday e'zozlanish katta baxt!

Unutmamaklik joizki, bu go'zal kunlarning, bu osuda zamonning fayzu tarovati bo'lakcha. Axir unga yetganlar bor, yetmaganlar bor... Urushni ham ko'rdik, ne-ne uqubatlar, azoblarni ham. Istardimki, hech bir mamlakatda urush bo'lmasin, xonadonlarimiz baxtga to'lsin.

### U kunlarni eslash og'ir, ammo unutib ham bo'lmaydi...

**Saydullo JABBOROV,**  
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Qashqadaryo viloyati):

Bundan roppa-rosa 84 yil avval... Urush boshlangani haqidagi vahimili xabarlar Shahrisabz tumanining Hisor tog' tizmalari etagida joylashgan chekka Qutchi qishlog'imizga ham yetib keldi. Ko'p o'tmay qishloq yigitlari birin-ketin frontga o'tlanishdi. Ular orasida endigina 21 yoshga to'lgan kamina ham bor edi...

Ha, vaziyat juda og'ir edi. Har kuni, har lahza o'lim bilan yuzma-yuz kelardik. Urushning bor dahshatini, uning insoniyat boshiga keltirgan ayovsiz kulflarini ana o'sha lahzalarda anglaganman. Urushda inson hayotining zarracha ahmiyati yo'q ekan. Bir kunda yuzlab safdoshlarimizdan ayrilardik... Ana shunday ayovsiz janglarda bir necha marotaba og'ir jarohat oldim. Tuzalishim bilan esa yana jang maydoniga o'tlandim. 1944-yilning so'ngiga kelib dushmaning ham shashi so'ndi, ortga tisarila boshladi. Bu paytda men tankchilar qismiga o'tgandim, Latviya va Litva hududlarida jang qildim. Nihoyat 1945-yil boshlariga kelib fashistlar ko'plab hududlardan tamomila chekindi. Men, hatto, 1945-yilning 9-may kuni ham jangda edim. O'shanda safdoshlarim bilan nogoh uch-to'rtta fashist askari yashirinib yotgan pistirmaga duch keldik. Chorasiz qolgan dushman jon holatda o't o'chardi. Ushbu qarama-qarshilikda og'ir jarohatlandim. Urush tugaganini esa oradan bir necha kun o'tib, Voronejdagi harbiy hospitalda bildim. 1946-yili ikki



qo'ltiqayotqada ko'ksim to'la orden va medallar bilan uyga qaytdim.

Qishloqqa qaytgach urushning dahshatini yanada taranoq his etdim: aksariyat oilalar farzandidan, otasidan ayrilgan, hammada tushkunlik kayfiyati, buning ustiga ocharchilik, bir burda non topish mashaqqat... Xullas, u kunlarni eslash juda og'ir, ammo unutib ham bo'lmaydi.

Hukumatimiz tomonidan biz, urush qatnashchilariga yuksak ehtirom ko'rsatilayotgani katta baxt. Barcha shart-sharoit yaratib berilgan, holimizdan doim xabardor bo'lib turishibdi. Har yili Xotira va qadrlash kuni arafasida Prezidentimiz mukofotini o'laymiz.

Bu yil ham davlatimiz rahbarining Farmoniga asosan biz, urush faxriylariga e'tibor hamda g'amxo'rlik sifatida katta ishlar amalga oshirilishi belgilanibdi. Albatta, bularni eshitib ich-ichimdan sevinдим. Ilohim, yurtimizning ana shu tinchligi, xalqimizning farovon hayoti bardavom bo'lsin!

### Jasorat bizning shiorimiz edi

**Ahad OCHILOV,**  
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Samarqand viloyati):

17 yosh... Er yigit uchun bilaklari kuchga to'lgan, tog'ni ura to'lgan qilgudek palla. Insoniyat boshiga og'ir kulflarni yog'dirgan Ikkinchi jahon urushi ana shunday alp yigitlarni urush jangog'lariga olib ketdi, shular qatori meni ham...

1942-yilda urushga otlandim. Dastlab safdoshlarim bilan Ashgabadagi tankchilar o'quv yurtida 8 oylik tayyorgarlikdan so'ng Shimoliy Kavkazda urushga kirdik. Keyin Ukraina hududidagi janglarda qatnashdim. Buyuk g'alabadan so'ng ham harbiy xizmat davom etdi. Dastlab Odessa harbiy okrugida bir yil xizmatda bo'ldim. Keyin Germaniyada 1949-yilgacha xizmat qildim. Jasorat bizning shiorimiz edi.

Urushdan keyingi faoliyatimni ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'ladim. Avval pedagogika texnikumida, keyin Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olganimdan so'ng 52 yil bir maktabda - tumandagi 3-o'rtta ta'lim maktabida yoshlarga ta'lim-tarbiya berdim. Nafaqaga chiqqach ham 18 yil maktabda mehnat



qildim. Hozir ham shogirdlarim yo'qlab, maslahat so'rab turadi.

Biz, urush qatnashchilari va unga tenglashtirilgan shaxslar, mehnat fronti ishtirokchilari Prezidentimizning doimiy e'tiboridan mag'rurlanamiz. Mana bu yil ham barchamiz mukofotlanaymiz. Bundan ko'nglim tog'dek o'sdi, albatta.

Bugungi farovon hayotimiz, tinchlik va osoyishtaligimiz, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida olib borilayotgan ezgu tashabbuslar kundan-kunga ortmoqda. Doim qo'limni duoga ochar ekanman, dasturxonlarimiz to'kinligi, xalqimiz farovonligi, tinchligimiz abadiy, mustaqilligimiz bardavom bo'lishini so'rayman.



**Барча авлод учун намуна ва ибрат мактаби**  
Vatanimiz tinchligi va mustaqillik uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimiz va mard o'g'lonlarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklari barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Ikkinchi jahon urushiga o'zbekistonliklarning 2 millionga yaqini safarbar etilib, shundan 538 ming nafardan ortig'i jang maydonlarida qahramonlaracha halok bo'lgan.

158 ming nafardan ko'prog'i bedarak yo'qolgan, mustaqillik yillarida 200 nafarga yaqin harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi yo'lida o'z jonini fido qilganlar.

Bu yil yurtimizda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda 9-may - Xotira va qadrlash kuni "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida o'tkaziladi.



### Ota duosidan kuch olib...

**Odiljon ZOKIROV,**  
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Farg'ona viloyati):



Bir paytlar qonli jangog'hlarda azob-uqubat ichra ingrab yurganimiz hali-hamon yodimda...

Bugungi kunlarga bir nazar soling, qanday go'zal, osuda, chiroyli... Yaratganga shukr, bugun umrimning 103-dovonidan oshib, nabira va chevaralar ardog'ida baxtli hayot kechirmoqdaman.

Kechagidek esimda, 1942-yilning kuzida jang maydoni sari yo'ldim. Mahalladosh qo'shim bilan frontga o'tlanar ekanmiz, xayrlashuv chog'ida rahmatli otam bolalikdan chalib yurgan dutorimni mehmonxona

to'riga ilib qo'ydi. Meni otalik mehri bilan bag'riga qattiq bosib: "Har gal mehmonxonaga kirganimizda dutoringni ko'rib, seni eslab yuramiz. Urushdan sog'omon qaytib, shu uydagi yana aziz mehmon bo'lishing uchun duo qilamiz", deya aytgan so'zi hamon qulog'im ostida jaranglab turadi. Otaning bu umidbaxsh gapi meni urushdan omon qaytishimga ruhlantirgan bo'lsa, ne ajab.

O'shanda ikki qo'shni poyezdda tobora qadrdon yurtdan uzoqlashib borar ekanmiz, xayolimda: "Urushdan g'alaba bilan qaytib, oilam davrasida yana shu dutorimni chalaman...", degan ezgu tuyg'u charx urardi. Bunday shirin xayollar sovuq o'lkalarda, bir necha kunlab och qolgan paytlarimiz, jarohatlanganimda uzilmas mehr rishatasi, ishonch ko'prigi bo'lib xizmat qildi, desam, adashmayman.

Nihoyat 1945-yilning sentabr

oyi oxirida ota yurtga qaytdim. Shundan so'ng uzoq yillar mobaynida qishloq xo'jaligida ishladim, jamiyatga, yaqinlarimga kerakli inson bo'lishga harakat qildim.

Bolaligimdan adabiyot va san'atga mehr qo'ygandim, shu bois hozir ham dutor va tanbur chalib turaman. Shuningdek, kitob o'qishni ham kanda qilmayman. Ochiq'i, yaqin yillargacha xonadonimizda qo'y, qoramol boqib, tomorqa yumushlarini ham o'zim bajarardim, lekin so'nggi paytlar sog'ligim bunga yo'l bermayapti.

Prezidentimizning bizni pul mukofoti bilan rag'batlantirish bo'yicha Farmoni qabul qilindi. Bunday e'tibor va g'amxo'rlik bizga kuch-quvvat baxsh etib, yanada yoshartiradi. Shu kunlarga yetkazganiga shukr. Hamisha duoga qo'l ocharkanman, baxtli va farovon hayotimizga aslo ko'z tegmasin, deymen.

### Shu davronga yetkazganiga shukr

**Vafo ISKANDAROV,**  
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Xorazm viloyati):



Yaratganga shukr, bu yil yuzinchi bahorni kutib o'layman. Umrim davomida ko'p yaxshi-yomon kunlarni, quvonch u tashvishlarni ko'rdim. Yoshligimda minglab tengdoshlarim qatori Ikkinchi jahon urushida qatnashdim. Qanchadan-qancha safdoshlarim jang maydonlarida qolib ketdi. Bunday tinch va farovon turmushni, yurtimiz ozodligi va obodligini ko'rish ko'plab qurol-doshlarimizga nasib etmadi. Taqdirning inoyati bilan urushdan sog'omon oilam bag'riga qaytib kelib, el-yurt ardog'ida shunday tabarruk yoshga yetish baxtiga musharraf bo'lganimdan shukronam cheksiz. Urush yillarining azobi, ocharchilik dahshatini biz ko'rdik, avlodlarimiz taqdirida aslo bunday qora kunlar takrorlanmasin.

Bugun yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar, har jabhadagi yangilanishlarni ko'rib xursand bo'lamiz. Ayniqsa, biz, urush

faxriylariga ko'rsatilayotgan e'tibordan juda mamnunmiz. Yaqinda "Nuroniylar" jamg'armasi viloyat bo'limi rahbarlari kelib, Prezidentimizning "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmonini o'qib berdi. Unga ko'ra urush qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 ming AQSH dollari miqdorida bir martalik pul mukofoti beriladigan bo'libdi. Bu g'amxo'rlik uchun davlatimiz rahbaridan cheksiz minnatdormiz.

Bu yil 9-may sanasida fashizm ustidan qozonilgan Buyuk g'alabaga 80 yil to'ladi. Afsus, safdoshlarimizning ko'pchiligi bu kunlarga yetib kela olmadi. Surishtiram, bugun Xorazmda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilaridan atigi 4 nafar qolibmiz. Bu yorug' olamni tark etgan qurol-doshlarimiz xotirasi oldida ta'zimdamiz, hayot bo'lgan safdoshlarimizga esa tan-sihatlik tilayman.

Vatan aziz, muqaddas. Uni qadrlash, yanada taraqqiy etishi uchun sadoqat bilan tinmay xizmat qilish kerak. Ilohim, Yer yuzida yurtimizdagidek tinchlik-farovonlik, mehruhabbat va ezgulik barqaror bo'lsin!

"Xalq so'zi".

### Toshkent shahar hokimligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamkorligida "Kitobxon Toshkent" loyihasi taqdimoti bo'lib o'tdi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxon 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhah Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 22.40 Topshirildi - 00.45 1 2 3 4 5 6